

**Tumanda yoshlar muammolarini o‘rganish, ularning hal etilishiga ko‘maklashish, yosh avlodning iste’dodi va qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha sharoitlar yaratish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Haqberdiyevning
HISOBOTI**

Bugungi kunda tumanda 0-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar **110 548 nafarni**, 14-30 yoshdagi yoshlar **54 426 nafarni** tashkil etadi.

2023 yilning o‘tgan davrida “Yoshlar jamg‘armasi”ga **579. mln. so‘m** mablag‘ jamg‘arilgan bo‘lib, 2023 yil boshidan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan **322 nafar** yoshlardan **210 nafariga 817.8 mln. so‘m** mablag‘ sarflandi.

Jumladan:

20 nafar yoshlar doimiy ishga joylashtirish orqali;

46 nafar yoshlar kelajak kasblariga o‘qitish orqali;

5 nafar yoshga safarbarlik chaqiruvi rezervi badal puli to‘lab berish orqali;

1 nafar yoshga turar joy ijarasi to‘lab berish orqali;

119 nafar yoshlarning to‘lov-kontrakt pullarini to‘lab berish orqali;

19 nafar yoshlar boshqa yo‘nalishlarda band qilish orqali “Yoshlar daftari”dan chiqarildi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning sektorlar kesimida tahlili

Sektor	Daftardga kiritilgan yoshlar soni	Daftardan chiqarilgan yoshlar soni	Daftarda qolgan yoshlar soni
Tuman jami	322	210	112
1-sektor	105	68	36
2-sektor	40	30	10
3-sektor	98	63	35
4-sektor	79	48	31

Barchangizning xabaringiz bor, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan joriy etilgan “Besh tashabbus olimpiadasi”ning birinchi mavsumida tumandagi **33 412 nafar** yoshlar qamrab olinib, **4 ta mahalla** fuqarolar yig‘ini (*Nuroni MFY – strit vokout, Xo‘jayuz MFY - stritbol, Charog‘bon MFY - stritbol, Eskijuma MFY - volebol*) yoshlari viloyatda birinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, respublika bosqichida faol ishtirok etishdi.

Ikkinchi mavsum davomida **44 360 nafar** yoshlar qamrab olinib, **6 ta mahalla** fuqarolar yig‘ini (*Yastepa MFY - volebol, Beklar MFY – stol tennisi, Navbahor MFY - stritbol, Qo‘rg‘oncha MFY - raqs, Charog‘bon MFY - stritbol, Talliota MFY – strit vorkout*) yoshlari viloyatda birinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, respublika bosqichida **2-**

va

3-o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi.

2023 yilda tumandagi umumta‘lim maktablarini bitirgan bitiruvchilardan **31 nafar** (2022 yilda 17 nafar) o‘quvchilar turli halqaro nifuzli oliy ta‘lim muassasalariga muddatidan oldin o‘qishga kirdi.

Joriy yilda 42 nafar bitiruvchilar oltin va **19 nafar** bitiruvchilar kumush medallari bilan maktabni tamomlamogda.

2022 yilda tumandagi 61 ta maktablarni **2385 nafar** bitiruvchilaridan **743 nafari (31,3%)** Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishgan edi.

2022/2023 o‘quv yilida OTMga kirish ko‘rsatgichini **40% dan** oshirishni rejalashtirilganmiz.

Bugungi kunda tumanda jami 267 ta sport inshootlari mavjud bo‘lib, shundan 62 tasi yopiq, 205 tasi ochiq sport inshootlari. Mazkur sport inshootlarida bugungi kunda jami 11785 nafar yoshlar muntazam sport bilan shug‘ullanmogda.

Tumandagi sport maktabi o‘ziga yaqin bo‘lgan hududdagi **27 ta maktablarga** biriktirilib, **20 turdagi** sport to‘garaklari tashkil etildi va ularga **1438 nafar** o‘quvchilar qamrab olindi.

2023 yilning o‘tgan davri mobaynida Toyloq sport maktabining **36 nafar** trener-o‘qituvchi va o‘quvchilari Respublika darajasidagi musobaqalarda ishtirok etib, diplom va estalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Toyloq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining trener-o‘qituvchi va o‘quvchilari O‘zbekiston Chempionati va kubogi uchun o‘tkazilgan musobaqalarda **85 ta 1-o‘rin**, 49 ta 2-o‘rin, 52 ta 3-o‘rin;

Viloyat Chempionati uchun o‘tkazilgan musobaqalarda **29 ta 1-o‘rin**, 14 ta 2-o‘rin, 16 ta 3-o‘rin;

Osiyo Chempionati va kubogi uchun o‘tkazilgan musobaqalarda **4 ta 1-o‘rin**,
1 ta 2-o‘rin, 2 ta 3-o‘rin;

Xalkaro turnirlar uchun o‘tkazilgan musobaqalarda **2 ta 1-o‘rin**, 7 ta 3-o‘rin;
Natijada jami **297 ta medallar** jamg‘arildi.

Barchangizning xabaringiz bor, joriy yilning 11 aprel kuni Muhtaram Yurtboshimiz rahbarliklarida “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida **“Ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi xavfsizligimiz masalasi”** ekanligi ta’kidlanib har bir mahalladagi yoshlarni 3 toifaga ya’ni qizil, sariq va yashil toifalarga ajratib, qizil va sariq toifadagi yoshlar bilan alohida ishlash, ularning muammo va takliflarini o‘rganib, belgilangan tartibda hal etish yuzasidan

topshiriqlar berilgan edi.

Shundan so'ng, tumandagi 50 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektorlari, maktab direktorlari va patranaj hamshiralar bilan birgalikda yoshlarning ro'yxatlari shakllantirilib, umumiy balans tayyorlandi.

Jumladan:

Xatlov natijasida, **54 nafar** probasiya nazoratidagilar;

68 nafar profilaktik hisobda turganlar;

33 nafar oilaviy ajrim yoqasidagilar;

49 nafar notinch oila farzandlari;

179 nafar surunkali kasalligi bo'yicha ro'yxatda turuvchilar;

15 nafar muntazam dars qoldiruvchilar;

20 nafar chin yetimlar;

561 nafar nogironlar;

545 nafar migrasiyadan qaytib kelgan yoshlar aniqlanib, bular **qizil toifaga** kiritildi.

Tumandagi 50 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida "qizil" toifaga kiritilgan jami **1529 nafar** yoshlarga tuman hokimi, hokim o'rinbosarlari, sektor rahbarlari, tumandagi korxonalar, tashkilot rahbarlari biriktirildi.

O'tgan davr davomida biriktirilgan rahbarlar tomonidan qizil toifaga kiritilgan yoshlarning xonadonlariga tashrif buyurishib, 1480 nafar yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. O'tkazilgan uchrashuv va suhbatlar natijasida yoshlar tomonidan 1290 ta muammo va takliflar bildirildi.

Natijada Samarqand viloyati bo'yicha Toyloq tumani 4-sektor, Ukrach mahalla fuqarolar yig'inining "**og'ir**" toifadagi yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha "**YO'L XARITASI**" loyihasi tayyorlanib, Respublika Ishchi komissiyasida himoya qilindi hamda shu asosda tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarining "Yo'l xaritalari", shu asosida har bir sektor rahbarining "Yo'l xaritasi" hamda tuman "Yo'l xaritasi" loyihalari tayyorlandi.

Qizil toifaga biriktirilgan 50 nafar tuman tashkilotlari rahbarlari tomonidan 1042 nafar yoshlarning ota-onalariga xatlar yuborildi.

252 nafar yoshlarning muammolarini hal etish maqsadida "Yoshlar daftari"ga kiritish uchun o'rganishlar o'tkazildi.

Tuman hokimining
o'rinbosari

J.Haqberdiyev